

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10859419>

## XIX ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA TOSHKENT NING YANGI SHAHAR QISMI SHAHARSOZLIGI

**Kimsanboyeva Zuhra Abdukarimovna**

IIB 1-sonli Toshkent akademik litseyi o'qituvchisi

[Kimsanboyevtoirjon@gmail.com.uz](mailto:Kimsanboyevtoirjon@gmail.com.uz)

**Ibragimov Adham Hayidmurodovich**

IIB 1-sonli Toshkent akademik litseyi o'qituvchisi

**Fayzulloev Akobir Faxriddin o'g'li**

IIB 1-sonli Toshkent akademik litseyi o'qituvchisi

**Usmonova Muslima Orifjon qizi**

IIB 1-sonli Toshkent akademik litseyi o'qituvchisi

### ANNOTASIYA

*Ushbu maqolada XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Toshkent shaharsozligidagi o'zgarishlar haqida ma'lumot beradi. Shu davr oralig'ida Toshkent shahri Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy markazi sifatida o'zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahamiyatiga ega shahar bo'lgan. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Toshkentning XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini yoritishda yozma manbalar muhim o'rin tutadi. Shunga asoslanib manbalarni qiyosiy tahlil erish maqsadga muvofiqdir.*

*Mavzuni yoritishda J.Ismoilovanning XIX asrning ikkinchi yarmi- XX asr boshlarida Toshkentning "Yangi shahar" qismi tarixi nomli kitobidan keng foydalanildi.*

**Kalit so'zlar:** Turkiston general-gubernatorligi, Yangi shahar, Rus Toshkenti, Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi NIZOM, davlat Dumasi.

## ABSTRACT

This article provides information about the changes in the urban planning of Tashkent in the late 19th and early 20th centuries. During this period, the city of Tashkent was the administrative center of the Turkestan General Governorate, a city with its own economic, political and cultural importance. In conclusion, it should be said that written sources play an important role in illuminating the socio-economic and cultural life of Tashkent in the late 19th and early 20th centuries. Based on this, it is appropriate to make a comparative analysis of the sources.

J. Ismoilova's book "History of the New City" part of Tashkent in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century was widely used to cover the topic.

**Key words:** Governor General of Turkestan, New City, Russian Tashkent, REGULATION on governance of the Turkestan region, State Duma.

**KIRISH.** Turkiston shaharlari ichida general-gubernatorlikning siyosiy, ma'muriy va madaniy markazi Toshkent boshqaruviga mustamlaka ma'muriyati alohida e'tibor bergan. Shahar bosib olingandan (1865) keyin general M.G. Chernyayev zobitlar va amaldorlar uchun shaharning sharqiy qismida joy tanladi. Baland tepalik ustiga qurilgan bu qal'a Tuproqo'rg'on deb nomlandi. U Qo'ymas darvozasining qarshisida qurilgan bo'lib uning tarxi 6 burchakli, baland tuproq ko'tarmalari bilan o'ralgan, 3ta darvoza, 6ta piyoda rotasi uchun bino, lazeratdan iborat bo'lgan. "Rus Toshkenti" barpo etish uchun maxsus qo'mita tuzildi, qo'mita 500 ta xovligacha uy qurish uchun yer berdi. 1866-1867-yillarda 200ta uy-joy qurildi. Qo'mitaning ikki yil faoliyati (1866-1868) davomida mahalliy aholining yuzlab uy-joylari buzib tashlandi, musodara qilingan hududda zobitlar hamda ularning oilalari uchun turar joy, ko'chalar va oromgohlar barpo etildi. Shu tarzda Toshkent shahri ikki qismga bo'linib ketdi. Ruslar istiqomat qiluvchi qismi yangi shahar, o'zbeklar yashaydigan qismi esa eski shahar deb ataldi. Eski shahar aholisiga yangi shaharga o'tish qattiqan man qilingan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA** 1866-yilga kelib topograf M.N.Kolesnikov tomonidan yangi shahar loyihasi tuzildi, loyiha asosan shahar qurilishi radiusli xalqa sxemasida tuzilgan bo‘lib, Konstantin xiyoboni (hozirgi Amir Temur xiyobon) uning markazi va undan Moskva (hozirgi Amir Temur ko‘chasi), Kaufman (hozirgi Sayilgoh, Duxovski prospekti (hozirgi Movaraunnahr), Qo‘yliq (hozirgi Oxunboboyev) ko‘chalari atrofida tarqalar edi. Yangi shaharda qator zamonaviy binolar, istirohat bog‘lari va obodonchilik ishlari olib borildi. Shahar ko‘chalarining nomlari asosan rus zobitlarining nomlari bilan atalib kelinganligi ma‘lum bo‘ldi. Sobornaya, Kaufmanskaya, Romonovskaya ko‘chalari eng gavjum ko‘chalar bo‘lib u yerlarda eng yaxshi do‘konlar, baqqollok, mehmonxonalar joylashgan..Toshkentning eski shahar aholisi uchun bunday sharoitlar yaratilmagan. XIX asrning 70-yillarida Toshkent boshqaruvini o‘zgartirish haqida Turkiston ma‘muriyati harakat boshladi. Birgina shahar boshlig‘i - hokim idorasi rivojlanib, kengayib borayotgan shahar xo‘jaligini boshqara olmay qoldi. 1872-yilda Sirdaryo viloyat boshqarmasining umumiy rayosati Toshkentda “Shahar nizomini qo‘llash” masalasini ko‘rib chiqdi. Rossiya ichki guberniyalarida 1870-yildan qo‘llana boshlagan “Shahar nizomi”ni mustamlaka ma‘muriyati manfaatlariga mos ravishda o‘zgartirish, qo‘shimchalar kiritish asosida Toshkentda joriy etilishiga doir loyiha tayyorlandi. Polkovnik Fridriks boshchiligidagi maxsus komissiya uni ko‘rib chiqdi[1;244]. 1868-yilda Sirdaryo va Semipalansk viloyatlari va Toshkent shahri uchun boshqaruv to‘g‘risidagi 1867-yilgi loyihasiga asosan xarbiy-xalq boshqarmasi tuzildi. Statistika maslahatchi Rossiyskiy boshqarmaning birinchi boshlig‘i etib tayinlandi. Shaharning “yangi”, “eski” qismlaridagi ijtimoiy, siyosiy va xo‘jalik boshqaruvi alohida-alohida olib borildi. Toshkentning yangi shahar qismi uchun quyidagi ishlar amalga oshirildi”

- 1) Reja tuzish, uy qurishga yer ajratish, ko‘cha va maydonlar tashkil etish.
- 2) Soliqlar va tirli tushumlarni tartibga keltirish ba undirish, shahar daromatlar va xarajatlar smetasini tuzish.
- 3) Shahar irrigatsiya va obodonchiligini boshqarish.

Xarbiy-xalq boshqarmasining barcha qarorlari general-gubernator tomonidan tasdiqlangach, viloyat idorasi, shahar boshlig'i va hokimi orqali tadbiq etilgan.

Shahar byujeti ancha g'arib bo'lishiga qaramay uning qurilishi va obodonchiligi bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

### DAROMADLAR

1	1870-yilda	10 ming rubl
2	1871-yilda	17.5 rubl
3	1872-yilda	17 ming rubl
4	1873-yilda	21820 rubl
5	1874-yilda	23917 rubl
6	1875-yilda	30287 rubl
7	1876-yilda	27766 rubl

Byujetning 82% i moliya va shahar jamoatchilik boshqaruvi, tibbiy, sanitar xizmati va sud organlari, irrigatsiyaning shaxsiy tarkibini ta'minlashga, mablag'ning 18% gina shahar obodonchiligiga sarflangan. Bunday ahvolda jamoatchilik qanday boshqarilganligini ko'rish mumkin. Turkiston o'lkasini Rossiya tomonidan bosib olinishi, imperiya uchun tabiiy resurslarga boy hududga ega bo'lish imkonini berdi. Rossiya harbiy vaziri, graf D.Milyutin, podshoh maslahatchisi V.Girs 1867-yilda "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida NIZOM" qonun loyihasini tuzdilar, u Vazirlar Kengashi tomonidan tasdiqlandi va amalda kuchga kirdi. Nizomga ko'ra, o'lka hokimiyati "xarbiy - xalq boshqaruvi" deb nomlandi. 1898-yildan keyin esa "ma'muriy – politsiya boshqaruvi" deb atalgan bo'lsa ham uning mohiyati mazmunan o'zgarmadi, barcha vakolatlar rus ma'muriyati qo'lida jamlangan.

**NATIJALAR** 1867-yil 11-iyulda G'arbiy Turkiston hududida Turkiston general-gubernatorligi ta'sis etiladi va uning bundan keying ma'muriy xududiy tuzilishi xarbiy yurishlar natijasida shakllandi. Dastlab, 2 ta viloyatdan iborat general-gubernatorlikka 1868-1880 yillar davomida olib borilgan harbiy istilolar natijasida

yana 3 ta viloyat qo'shildi. XIX asrning oxirlarida Turkiston general-gubernatorligi Sirdaryo, Samarqand, Yettisuv, Farg'ona va Kaspiyorti dan iborat bo'lgan. Uning barcha hududi 1.779.618 chaqirimga teng bo'lgan, u viloyatlar (oblast), tuman (uyezd), bo'lis (volost), jabxalar (uchastka) va oqsoqolliklarga bo'lib boshqarilgan.

Turkistonda mustamlakachilik boshqaruv tizimi va idora etish usullari esa Rossiya hukumatinin Turkiston uchun 1865-1916 yillar davomida ishlab chiqqan (1865, 1867, 1871, 1873, 1882, 1884, 1886, 1908, 1912, 1916) qonun loyihalarida o'z aksini topgan[2;19]. Ushbu qonun loyihalai birinchi navbatda Rossiya imperiyasi manfaatlarini himoya qilgan, Turkistonni rus burjuaziyasi va dvoryan- pomeshchiklar mulkiga aylantirishga qaratilgan edi.

**MUHOKAMA** Turkiston o'lkasida viloyat va tuman boshqarmalari shaharlarda joylashgan. Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan va Ashxobod o'lkaning asosiy shaharlari bo'lgan[3;24]. Rus ma'muriyati Toshkent shahrini Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy markazi etib, shahar boshqaruviga alohida e'tibor berdi. 1870-yilgi ma'lumotga asoslanib, Toshkentda 80000ga yaqin aholi yashagan. XIX asr oxirida Toshkentda 20 ta mahalla, 310 ta masjid, 17 ta madrasa, 11 ta xammom, 15ta karvonsaroy, 11000 ta paxsa suvoqli uylar bo'lib, shahar aholisining soni tobora oshib borgan. Ruslar Toshkentning sharqiy qismida joy tanlab, tanlangan joydagi mahalliy aholini ko'chirib, Rossiyadan kelganlar yashaydigan uylar, ko'chalar, oromgohlar qurildi[4;77]. Shaharning bu qismi yangi shahar deb atalib, shaharni hokim boshqargan. Rus hukumatinin ma'muriyati tomonidan Toshkent shahrini boshqarish Nizomi ishlab chiqildi va u 1877-yilda Sant-Peterburgda tasdiqlanib kuchga kirdi[5;28]. Nizomga ko'ra Toshkent shahar Dumasi va boshqarma saylash nazarda tutilgan. Shahar o'zini-o'zi boshqarish organlari-shahar Dumasi Toshkentda, so'ngra boshqa shaharlarda tashkil etilgan. 1877-yilda maxsus muvaqqat komissiya tuzilib, saylovlar, saylovchilar mulkdorlik darajasiga qarab uch toifaga ajratiladi.

- 1) 3000 so'mdan ortiq qo'zg'almas mulkka ega bo'lganlar
- 2) 1000 so'mda ortiq mulkka egalari

### 3) 500 soʻmdan ortiq mulkka egalari

Mustamlakachilikka koʻra, yangi shahar qismida mulk senzi mulk qiymatining 1% belgilangan. Shahar ziyolilari, ishchilar va hunarmandlarning qoʻzgʻalmas mulkka ega boʻlmaganlari saylov huquqidan mahrum etildi. Har bir toifa shahar boshligʻi - hokim toʻra raisligida saylov yigʻinini tuzdi. 2400 saylovchi ishtirokida oʻtgan yigʻinda shahar dumasi va boshqarmasi saylanadi. Ruslar uchun noiblarning 2/3 qismi miqdorida oʻrin ajratiladi. Shahar dumasi farmoyish beruvchi, noiblardan (glasniy) saylanuvchi boshqarma (uprava) esa ijroiya hokimiyatiga ega boʻldi[6;94].

### **XULOSA** oʻrnida shuni aytish joiz,

1)Oʻrganilayotgan davrda Toshkent shahrining shaharsozligi asosan ruslar tomonidan bosib olingandan soʻng shahar ikki qismga boʻlib boshqarilganligi.

2)Shaharsozlikning rivojlanishi iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rus zobitlarini qoʻlida boʻlganligi.

3)1865-yilda Qoʻymas darvozasining qarshida bunyod etilgan Tuproqqoʻrgʻon qalʼasi shaharning ikkala yaʼni eski shahar va yangi shahar qismini nazorat qilish uchun tayant markaz boʻlganligi.

4)shaharsozlikni bunyod etishda asosan eʼtibor ruslar yashaydigan yangi shahar qismiga qaratilganligi.

5)XIX asrning ikkinchi yarmi- XX asr boshlarida Toshkent shahri shaharsozlik qurilishida xom gʻisht va pishgan gʻishdan bunyod etilgan binolar, koʻchalar, istiroxat bogʻlari qoʻyinki har qanday imkoniyat rus zobitlari va amaldorlari manfaatiga xizmat qilgan, mahalliy aholining turmush tarzida oʻzgarish yuz bermaganligini oʻrganilgan manbalar asosida koʻrib oʻtish mumkin.

**ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. H.Sodiqov, N.Jo‘rayev O‘zbekiston tarixi Turkiston Chorizm mustamlakachiligi davrida (birinchi kitob). Toshkent. Sharq, 2011.
2. Ж.Исмоилова XIX асрнинг иккинчи ярми - XX асрнинг бошларида Тошкентнинг “янги шаҳар” қисми тарихи. Тошкент. Фан ва технология, 2004.
3. D.A. Alimova, V.I. Filanovich Toshkent tarixi (Qadim davrdan bugungi kungacha) Qayta ishlangan va to‘ldirilgan ikkinchi nashri. Toshkent. Sharq, 2009.
4. У. Султонов Муҳаммад Солих Хужа ва унинг “Тарихи Жадидаи Тошканд”. Тошкент. Узбекистон, 2009.
5. У. Султонов Муҳаммад Солих Хужа ва унинг “Тарихи Жадиди Тошкент” асари муҳим тарихий манба сифатида (XIX аср). Тарих Фан ном...дисс. автореф. Тошкент. 2007.
6. М. Шарипова Тошкент шаҳрининг XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларидаги ижтимоий – сиёсий ахволи: Дисс...тарих фан. номзод. Тошкент. 2002.
7. А. Уринбоев, О.Буриев Тошкент Муҳаммад Солих тавсифида (XIX аср). Тошкент. Фан, 1983.